





## PARLAMENTLARARO ALOQALAR IZCHIL DAVOM ETTIRILADI

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mo'g'ulistonga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlar doirasida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohaslarida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida hamda to'liq amalga oshirilishini ta'minlash parlamentlararo guruhning ham vazifasi ekanligi ta'kidlandi.

Bundan tashqari, uchrashuvda parlamentlararo hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, uni yangi mazmun bilan boyitish, qonun ijodkorligi sohasida o'zaro tajriba almashish masalalari bo'yicha ham so'z yuritildi.

"Xalq so'zi".

### Senator so'rovi

## XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK HOLATLARINING KO'PAYISH SABABLARI NIMADA?

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi M. Qodirxonova Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Zulayho Mahkamova nomiga senator so'rovi yubordi.

U mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, tazyiq va zo'ravonlik holatlarini bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan yuborilgan.

Senator ta'kidlaganidek, qabul qilingan qonunlar va choralar qaramay so'nggi yillarda ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari oshib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra joriy yilning birinchi yarmida respublika bo'yicha 48 303 ta tazyiq va zo'ravonlik holati qayd etilgan bo'lib, bu o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 121 foiz ko'pdir.

Eng ko'p holatlar Toshkent (9 414 ta), Buxoro (5 612 ta), Qashqadaryo (5 268 ta) va Andijon viloyatlarida (4 808 ta) qayd etilgan. Shu davrda 930 nafar ayolga takroriy himoya orderlari berilgan.

Senator so'rovida qo'mita va uning hududiy bo'linmalari tomonidan tazyiq va zo'ravonlikka olib keluvchi sabablarni aniqlash, profilaktik ishlarni kuchaytirish, vakolatli organlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va mahallalarda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka muvazirlashni ta'minlash shakllantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish taqdim etish so'ralgan.

"Xalq so'zi".

## DEMOGRAFIK JARAYONLARDA YOSHLARNING ROLI VA IMKONIYATLARI

12-avgust – Xalqaro yoshlar kuni munosabati bilan Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari uchun BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) tomonidan "Yoshlarning demografik jarayonlardagi roli va imkoniyatlari" mavzuida o'quv seminarini uyushtirildi. Tadbirda Yoshlar parlamentining 40 nafar a'zosi qatnashdi.

### Seminar

O'quv-seminarni Yoshlar parlamenti raisi Laylo Aslonova kirish so'zi bilan ochib, yoshlarning demografik barqarorlik jarayonida faol ishtiroki bo'yicha o'z fikrlarini bildirdi.

O'z navbatida, UNFPANing O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari o'rinbosari Matluba Umurzoyeva yoshlarga oid siyosat va demografik barqarorlikka doir davlat dasturlari hamda yoshlarni qo'llab-

quvvatlashning dolzarb yo'nalishlari haqida ma'lumot berdi.

Seminar doirasida demografik barqarorlik, yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, shuningdek, yoshlar siyosatining barqaror rivojlanishga ta'siriga oid asosiy masalalar ko'rib chiqildi.

Tadbirda demografik dividenddan samarali foydalanish hamda demografik barqarorlik strategiyasi masalalari ham muhokama qilindi.

"Xalq so'zi".



## ORZU-UMIDLAR RO'YOBI VA ERTANGI-KUNGA ISHONCH

1 Maktab, bog'cha va tibbiyot muassasalari qurildi, transport va kommunikatsiya infratuzilmalari yaxshilandi. Viloyatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ekspost salohiyatini oshirish, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan loyihalar ijrosi uchun 2 mlrd. dollardan ortiq sarmoya jalb qilingan. 565 mingta yangi ish o'rni tashkil etilib, 90 ming nafardan ziyod aholi kambag'allikdan chiqarildi.

Bundan sakkiz yil muqaddam Qashqadaryo sanoati haqida gap ketsa, faqat neft va gaz korxonalari tilga olinar edi. Islohotlar natijasida bugun elektrotexnika, qurilish materiallari, mebelsozlik tarmoqlarining sanoatdagi ulushi 54 foizga yetdi. Prezidentimizning viloyatga tashrifi chog'ida Shahrisabz, Yakkabog' va Ko'kdalada ishga

tushirilgan loyihalarni barcha tumanlarga tatbiq etish, keyingi besh yillikda yalpi hududiy mahsulot hajmini 10 mlrd. dollarga yetkazish vazifasi yuklatildi.

Bugun vohada 23 554 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat olib bormoqda. O'tgan olti oy mobaynida ular safiga yana 1700 nafar tadbirkor qo'shildi. "Yoshlar biznesi" dasturiga asosan oliyog' bitiruvchilarini "Kelajakka qadam" dasturi bilan qamrab olish orqali ular tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va ish bilan ta'minlashga ko'maklashish borasida amaliy ishlar boshlab yuborilgan. Yil oxiriga qadar 70 ming 544 nafar yigit-qiz bandligini ta'minlash rejalashtirilgan. Hozirga qadar ularning 40 ming nafardan ko'pi ishli bo'ldi.

Yana bir misol. Bu yil viloyatda maktab, texnikum va oliy o'quv yurtini bitiruvchilar soni 73 323

nafarni tashkil etdi. Shundan 21 768 nafari ta'limning keyingi bosqichiga jalb qilindi. 51 567 nafarining bandligi ta'minlandi. 6 819 nafariga takroriy ekin ekib daromad olish uchun yer maydoni ajratildi. 1 540 nafariga esa subsidiya va 5 697 nafariga imtiyozli kredit ajratilib, 17 647 yigit-qizning o'zini o'zi band qilishi rejalashtirilgan.

Yangi O'zbekiston bunyodkorlari bo'lgan yoshlarimizning iqtidorini namoyon etishi, bilim va kasb-hunar o'rganishi, bandligini ta'minlash borasida keng ko'lami ishlar qilinmoqda, ular o'zlarini adolatli muhit hukmron bo'lgan, xalq davlatning asosiy boyligi sifatida e'zozlanadigan mamlakat fuqarolari ekanliklarini dildan his etmoqda.

Kambag'allikni qisqartirish, aholi turmush farovonligini oshirish, ishlab chiqarishni

zamonaviylashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari o'z samarasini berdi.

Islohotlar bardavomligi yo'lida kurashish, mustaqilligimizni ko'z qorachig'idek asrash, uni mustahkamlash uchun barchamiz – kim bo'lishimiz va qaysi lavozimda ishlashimizdan qat'i nazar, jonbozlik ko'rsatishimiz kerak. Ana shunday har bir yurtodoshimiz ikkilanmasdan mustaqillikni mustahkamlash uchun o'z hissamini qo'sha o'ldim deb aytishga haqli bo'ladi.

**Shuhrat ASLANOV,**  
Oliy Majlis Senatining  
Yoshlar, xotin-qizlar,  
madaniyat va sport  
masalalari qo'mitasi a'zosi.

## QONUNLARNING MAZMUN-MOHIIYATI TUSHUNTIRILDI

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari Sayyora Abdikarimova Xorazm viloyatida jamoatchilik vakillari bilan uchrashdi.

Unda parlament yuqori palatasining to'qqizinchi yalpi majlisida qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyati haqida fikr yuritildi.

### Senatorlar – hududlarda

Xususan, fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlikni liberalashtirishga doir qonunlar, shuningdek, hududlarda infratuzilmani rivojlantirish va qurilishlarni tartibga solish, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining ijro etish masalalari muhokama markazida bo'ldi.

Bundan tashqari, Senat tomonidan dorivor o'simliklarni yetishtirish, qayta ishlash, ularga kvota ajratish hamda

sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish yuzasidan yuborilgan parlament so'rovining ahamiyatiga e'tibor qaratildi.

Muloqotda mahalliy Kengash deputatlarining fuqarolar bilan doimiy aloqada bo'lishi, yuzmayuz uchrashuvlar orqali qonunchilikdagi yangiliklardan aholini xabarдор qilishi va ularning amaldagi ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etishi zarurligi alohida ta'kidlandi.

"Xalq so'zi".

### Qulaylik

## Farg'onaliklar savdo yarmarkalari faoliyatidan mamnun

Eng ulug', eng aziz bayram – istiqlolimizning 34 yilligini munosib kutib olish maqsadida Farg'ona viloyatidagi shahar va tumanlarda joylashgan markaziy dehqon bozorlariga arzonlashtirilgan bayram yarmarkalari faoliyati yo'lga qo'yildi.

An'anaga ko'ra xaridorlar uchun eng qulay hududda joylashtirilgan ushbu yarmarkalarda 30 turdagi kundalik oziq-ovqat mahsulotlari savdosi yo'lga qo'yilgan. "Daladan – xaridorga" tamoyili asosida xizmat ko'rsatadigan yarmarkalarda narx-navo sezilarli darajada arzonligi xaridorlarga manzur bo'ladi. Fermer va dehqon xo'jaliklari esa shartnomalar asosida har kuni yangi va sifatli mahsulotlarni savdo rastalariga peshma-pesh yetkazib berayotir.

– Yarmarkada bir kilogramm mol go'shti 70 – 85 ming so'm, tovuq go'shti 25 ming so'm, baliq 30 ming so'm, paxta va kungaboqar yog'ining litrini 18 – 20 ming so'mdan xarid qildim, – deydi mehnat faxriysi Muhabbatxon Yusupova. – Mevasabzavotlar, shakar, guruh, qandolat mahsulotlari ham bozordagidan ancha arzon narxda sotilmoqda.

Mazkur yarmarkalar 5-sentyabrgacha faoliyat ko'rsatadi.

**Botir MADIYOROV**  
("Xalq so'zi").

# HARBIY KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDA MUTLAQO YANGI BOSQICH



qilindi. Bundan tashqari, sohani rivojlantirishga doir qator qonunlar, Farmon va qarorlar amaliyotga tatbiq etildi. Qurolli Kuchlarimizning tashkiliy tuzilmasi takomillashtirildi, qo'shinlarni zamonaviy qurol-yarog' va texnika namunalarini bilan jihozlash, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi hamda shayligi, kasbiy mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan harbiy-ma'muriy sektorlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Buning natijasida barcha dala-o'quv maydonlari, harbiy qism va muassasalarining infratuzilmalari takomillashtirilib, zamon talablari asosida yangi qiyofaga keltirildi.

Jumladan, "Chirchiq", "Angren", "Forish", "Sazagan", "Kattaqo'rg'on", "Farg'ona", "G'urumsaroy", "Termez", "Nukus", "Muborak", "Yangiariq" poligonlarida keng ko'lami qurilish va kapital ta'mirlash ishlari olib borildi. Mudofaa vazirligida turli yo'nalishlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan maxsus o'quv markazlari tashkil etildi. Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari bo'linmalari zamonaviy harbiy aviatsiya va mudofaa tizimlari bilan ta'minlandi. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tizimi takomillashtirilib, bo'linmalar jangovar shayligi sezilarli darajada oshdi.

Qo'shinlar qudratini oshirishda barcha bo'g'inda professional harbiy kadrlar tayyorlash o'ta muhim ahamiyatga ega. Shu bois so'nggi yillarda harbiy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi, o'quv laboratoriyasi va poligonlari hamda infratuzilmalari zamon talablari asosida rivojlandi. Axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari va simulyatorlar harbiy ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich joriy qilinayotir. Bunda asosiy e'tibor mavjud oliy harbiy ta'lim muassasalarini moddiy-texnik jihatdan mustahkamlash modernizatsiyasiga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti hamda Harbiy tibbiyot akademiyasida katta hajmdagi qurilish va kapital ta'mirlash, o'quv-moddiy bazani takomillashtirish ishlari amalga oshirildi.

Bular hali hammasi emas. 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti Jizzax viloyatidan Qarshi shahriga ko'chirildi va 2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti deb qayta nomlandi. Umuman, vazirlik tarkibidagi oliy harbiy ta'lim muassasalarining o'quv-moddiy bazasi va infratuzilmalari 2016-yildagi holatga nisbatan yangi qiyofaga ega bo'lib, zamonaviy texnologiyalar amaliyotga joriy etildi.

E'tibor bering, 2016-yilgacha Mudofaa vazirligi tizimidagi oliy harbiy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyat 4 foizni tashkil etgan bo'lsa, hozirgi

kunga kelib bu ko'rsatkich 56,2 foizga yetdi. Albatta, bu davlatimiz rahbarining harbiy ta'lim va ilm-fanni tubdan isloh qilish, uni zamonaviy standartlarga moslashtirish bo'yicha ko'rgan qat'iy choralarini mahsulidir.

Biroq bugungi murakkab davr har bir mamlakat oldiga mudofaa va xavfsizlikni ta'minlashda kundan-kun yangi talablar qo'yimoqda. Ana shu hayotiy zarurat sabab davlatimiz rahbari joriy yil fevral oyida bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining yig'ilishida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida harbiy ta'lim tizimini to'liq transformatsiya qilish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab berdi. Ushbu topshiriqlar asosida yigirmadan ortiq xorijiy davlatlarning sohaga oid ilg'or tajribalari o'rganilib, harbiy ta'limni isloh qilish bo'yicha mutlaqo yangi milliy model ishlab chiqildi.

Ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan iyul oyida qabul qilingan qaror tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu esa mamlakatimizda harbiy kadrlar tayyorlash tizimini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishni ko'zda tutadi.

Qarorga asosan Qurolli Kuchlar Akademiyasi isloh qilinib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa

universiteti tashkil etildi. Endilikda universitet tarkibida 5 ta institut, 4 ta fakultet, shuningdek, 6 ta okrug fakulteti, 19 ta o'quv markazini o'z ichiga olgan Serjantlar tayyorlash oliy maktabi hamda Aviatsiya va uchuvchisiz uchish apparatlarini mutaxassislarini tayyorlash markazi faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu markazlashgan vertikal tizimni hosil qilib, qo'shinlarning jangovar salohiyatini oshirish, dual ta'lim tizimini kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni qo'shinlar amaliyotiga keng tatbiq etish imkoniyatini beradi.

Yana bir e'tiborli jihat tor doiradagi ixtisosliklar bo'yicha "2+2" modeli yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq. Ya'ni psixologiya, aloqa, ta'minot kabi 18 xil yondosh sohalar bo'yicha mutaxassislar boshqa oliy ta'lim muassasalarining 2-bosqich talabalari orasidan saralab olinadi. Ushbu yondashuv orqali harbiy ta'lim muassasalarini sohaga qiziqishi va tayyorgarligi yuqori bo'lgan talabalarni tanlab olish imkonini beradi. Bu esa harbiy ta'limning jozibadorligi hamda natijadorligini oshirib, vaqt va resurslarni tejashga xizmat qiladi.

Bulardan tashqari, endilikda oliy harbiy ta'lim muassasalarining 36 ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari biron-bir diplom – fuqarolik va harbiy kasbga mo'ljallangan mutaxassislik egasi bo'ladi. Bu esa ofitserlarning xizmat faoliyatini tamomlaganidan so'ng fuqarolik yo'nalishlarida kelgusi mehnat faoliyatini davom ettirish imkonini yaratadi. Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yangi o'quv yilidan boshlab bitiruvchi bosqich kursantlari uchun tanlov asosida "Oliy Bosh Qo'mondon" davlat stipendiyasi joriy etildi.

Oliy harbiy ta'lim va harbiy ilm-fanni yanada rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar mamlakatimiz Qurolli Kuchlari uchun yetuk salohiyatga ega, har tomonlama professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

**Rahim SHERQULOV**  
("Xalq so'zi") yozib oldi.

Bekobodni Toshkent shahri bilan bog'laydigan yangi temir yo'l quriladi.

# AHOLI MANFAATLARINING HUQUQIY ASOSI VA XALQCHIL NORMALAR

Qonun loyihasi insonlarning ajralmas huquqlariga sun'iy intellekt texnologiyalarining salbiy ta'sir o'tkazishidan himoya qiladi. Xususan, sun'iy intellektdan foydalanib yaratilgan axborot resurslari va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydigan axborot tizimlari insonga, uning hayotiga, sog'lig'iga, erkinligiga, sha'niga, qadr-qimmatiga putur yetkazmasligi va boshqa ajralmas huquqlarini buzmasligiga oid talab belgilanyapti.

Insonning huquq va erkinligiga aloqador yuridik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda faqatgina sun'iy intellektdan foydalanib yaratilgan axborot resurslari va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydigan axborot tizimlari xulosasiga tayanib qolish mumkin emasligi o'z aksini topmoqda.

Qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida deputatlar, ekspertlar va olimlar fikri inobatga olinib, loyiha yanada takomillashtirildi.

Majlisda qonun loyihasining qabul qilinishi sun'iy intellektdan foydalanishni yanada rivojlantirish, uni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solish, bu yo'nalish bo'yicha yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqish, sun'iy intellektdan foydalangan holda shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga xilof ravishda ishlov berish va tarqatishning oldini olishga xizmat qilishi qayd etildi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

## Malakali hakamlik sudyalari korpusi shakllanadi

Majlisda hakamlik sudlari faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasining muhokamasi ham qizg'in kechdi.

Qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqish jarayonida undagi ayrim normalar yuzasidan deputatlar tomonidan bir qator takliflar berilgan edi. Ular mas'ul qo'mita va ishchi guruh a'zolari tomonidan chuqur tahlil qilinib, shular asosida loyiha matni takomilga yetkazildi.

Xususan, doimiy faoliyat yurituvchi hakamlik sudining tarkibida 5 nafar hakamlik sudi bo'lishi lozimligi to'g'risidagi talab kelgusida hakamlik sudini tashkil etishda muammolar keltirib chiqarishi, ayniqsa, uzoq hududlardagi hakamlik sudlariga 5 nafar hakam to'plashda yuqoridagi talabni qisqartirish, shular asosida loyiha matni takomilga yetkazildi.

Qonun loyihasi bilan davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari hamda davlat ishtirokidagi korxonalar, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hakamlik bitimi taraflari bo'lishi mumkin emasligi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, endilikda doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan tashkil etilishi va uning huzurida faoliyat ko'rsatishi belgilab qo'yilmoqda.

Majlisda qonun loyihasida belgilanayotgan normalar hakamlik sudlari faoliyatini yuritishning qonuniy asoslarini mustahkamlash, malakali hakamlik sudyalari korpusining shakllanishiga xizmat qilishi qayd etildi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

## Ijtimoiy ish sohasidagi munosabatlari tartibga solinadi

Majlisda "Ijtimoiy ish to'g'risida"gi qonun loyihasi atroflicha ko'rib chiqildi.

Bu bilan ijtimoiy ish sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, bu yo'nalishdagi maxsus vakolatli davlat organi hamda uning vakolatlari, ijtimoiy xodimning vazifalari va majburiyatlari belgilanmoqda.

Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar (oilalar)ning himoyasini ta'minlash, ijtimoiy ishni tashkil etish hamda ijtimoiy muhofaza bo'yicha munosabatlarni tartibga solish nazarda tutilyapti.

Shuningdek, davlat tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar (oilalar)ning og'ir ijtimoiy vaziyatdan chiqishiga va jamiyat hayotida ishtirok etishi uchun boshqa shaxslar bilan teng bo'lgan imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan kafolatlangan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi belgilab berilmoqda.

Loyihada ijtimoiy himoyaga muhtoj oila (shaxs)ni



aniqlash va ularni ijtimoiy himoyaga muhtoj oila (shaxs) deb topish asoslarini, bunday xizmatlar va yordamdan foydalanuvchilarning huquqlari va majburiyatlari ham aks etmoqda. Qolaversa, ijtimoiy xizmatlar hamda yordamning turlari va shakllariga aniqlik kiritilyapti.

Majlisda aytilganidek, mazkur qonun loyihasi Qonunchilik palatasining shu yil 29-iyul kuni bo'lib o'tgan majlisida ko'rib chiqilib, unda nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo'yicha bir qator savollar o'rta tashlangan edi.

O'tgan vaqt mobaynida mas'ul qo'mita tomonidan deputatlar bildirgan qator takliflar chuqur tahlildan o'tkazilib, ular asosida loyihadagi ayrim normalar takomillashtirildi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 19-moddasi uchinchi qismida "ijtimoiy adolat prinsiplari" bayon qilangani, bu tahrir bir nechta huquqiy prinsiplar majmui sifatida talqin etilishini, shu bilan birga, nazariy jihatdan "ijtimoiy adolat prinsiplari" inson huquqlarini hurmat qilish, mutanosiblik hamda shu kabi boshqa huquqiy prinsiplarni o'z ichiga olganini inobatga olib, qonun loyihasining 7-moddasi chiqarib tashlanmoqda.

Shu bilan birga, loyihaing avvalgi 13-modda, hozirgi 12-moddasida Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy ish sohasidagi vakolatlarga boshqa vazifalar yuklatilayotganini inobatga olib, tahriri o'zgartirish kiritilmoqda. Bundan tashqari, qonun loyihasining "Ijtimoiy xodimning faoliyatiga nisbatan cheklolvar"ga bag'ishlangan moddasi ishchi guruh tomonidan qayta ko'rib chiqilib, o'zgartirishlar kiritildi. Ushbu moddada jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar ijtimoiy xodim sifatida faoliyat yuritishiga nisbatan cheklolvar belgilanmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

## Tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda muhim choralar

Majlisda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali aholi bandligini ta'minlash hamda yuqori qo'shilgan qiymatli tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi.

Xususan, yuqori texnologiyalar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishda tadbirkorlik subyektlariga foyda solig'i va mol-mulk solig'idagi imtiyozlar berish taklif etilmoqda. Qolaversa, davlat muassasasi shaklida tuzilgan hududiy yaylov xo'jaliklarining doimiy foydalanishdagi yaylov yerlarini yer solig'idagi ozod qilinishi nazarda tutilyapti.

Shuningdek, yengil sanoat va xizmatlar sohasini, ipoteka bozori va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va kreativ parking rezidentlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan soliq imtiyozlarini taqdim etish belgilab qo'yilmoqda.

Loyihada aylanmadan olinadigan soliq yoki qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi yakka tartibdagi tadbirkor moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmaganligi sababli belgilangan tartibda soliq organining taqdimnomasiga asosan harakatsiz rejimga o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yil ichida (amalda 3 yil) o'z faoliyatini tiklamagan taqdirda, u ro'yxatdan o'tkazuvchi organing qaroriga ko'ra tugatilishi mumkinligi nazarda tutilmoqda.

Bunday o'zgartirish mamlakatda tadbirkorlik faolligini to'g'ri baholash, iqtisodiy va statistik ko'rsatkichlarning to'g'ri shakllanishiga hamda "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qonun loyihasida mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarni ish bilan ta'minlash maqsadida ayrim sohalardagi tadbirkorlik subyektlariga o'ttiz yoshdan oshmagan xodimlarni ishga qabul qilgani uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz miqdorida belgilash taklif etilayotgani deputatlar tomonidan ma'qullandi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

## Soddalashtirilgan tartibda ijro etiladigan ishlar toifasi kengaytiriladi

Majlisda ijro ishini yuritishning soddalashtirilgan tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham muhokama markazida bo'ldi.

Ma'lumki, ijro ishini yuritishning soddalashtirilgan tartibida undiruvni qardorning mol-mulkiga (bundan pul mablag'lari mustasno) qaratilgan hamda unga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari qo'llanilgan holda amalga oshiriladi.

Qonun loyihasi bilan soddalashtirilgan tartibda ijro etiladigan ijro ishlar toifasi kengaytirilmoqda. Xususan, videokonferensaloqa xarajatlarini, kommunal xizmatlar hamda ko'p kvartirali uylar mulkdorlarining majburiy badallari yoki to'lovlar bo'yicha qarzdorliklarni, shuningdek, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan ko'p bo'lmagan darajadagi ijro hujjatlarini soddalashtirilgan tartibda ijro etish nazarda tutilyapti.

Munozaralarda loyiha ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgani aytiladi.

Majlisda qonun loyihasida belgilanayotgan normalar undiruv samaradorligini oshirish, murakkab bo'lmagan ijro hujjatlarini bo'yicha qarzdorlarning yashash joyiga borib, ularni ortiqcha bezovta qilish holatlarini oldini olish hamda qarzdorga nisbatan taqiq va cheklolvarni qo'llanilgan holda undiruvni amalga oshirishga imkoniyat yaratishi ta'kidlandi.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

## Xotin-qizlar ijtimoiy muhofazasi yanada kuchaytiriladi

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat – "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasi bo'ldi.

Bu bilan amaldagi "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda. Xususan, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari talabnomasi asosida mahalliy mehnat organlariga ro'yxati taqdim etilgan, tazyiq va zo'raonlikdan jabrlangan tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan xotin-qizlarni ishga joylashtirishga doir yo'llanma bo'yicha davlat tashkilotlariga ishga joylashtirish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, mahalliy mehnat organlariga ro'yxati taqdim etilgan, tazyiq va zo'raonlikdan jabrlangan tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan xotin-qizlar murojaat qilmasa ham, ular ish qidirayotgan shaxslar sifatida ro'yxatga olinishi belgilanmoqda.

Majlisda mazkur qonun loyihasi Qonunchilik palatasining shu yil 29-iyul kuni bo'lib o'tgan majlisida ko'rib chiqilib, bir qator savollar o'rta tashlangani aytiladi.

Shundan kelib chiqib, qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida deputatlar, siyosiy partiyalar fraksiyalari tomonidan bildirilgan takliflar inobatga olinib, undagi ayrim normalar yanada aniqlashtirilgani va tahriri tuzatishlar kiritilgani ta'kidlandi.

Xususan, qonun loyihasida nazarda tutilgan normalarning turlicha talqin qilinishining oldini olish maqsadida yo'llanma davlat tashkilotiga hamda davlat ulushi ellik foiz va undan yuqori bo'lgan tashkilotlarga ishga joylashtirish uchun berilishini nazarda tutuvchi tahriri o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi tazyiq va zo'raonlikdan jabrlangan, tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash orqali ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

## Sug'urta xizmatlari iste'molchilari huquqlari himoya qilinadi

Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish orqali sug'urta bozorining professional ishtirokchilariga qulay shart-sharoitlar yaratish hamda sug'urta munosabatlari kelib chiqadigan nizolarni hal etishga qaratilgan.

Loyiha bilan sug'urta bozorining professional ishtirokchilari faoliyatida xabardor qilish tartib-taomillarini qo'llash belgilanmoqda. Shuningdek, sug'urta agenti faoliyatini tartibga solishning yangi mexanizmini ishlab chiqish, sug'urtalovchi litsenziyasini ixtiyoriy ravishda bekor qilish tartibini vakolatli davlat organi tomonidan belgilash, sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarning mansabdor shaxslari uchun belgilangan malaka talablari va ularni aniqlash tartibini takomillashtirish taklif etilmoqda.

Xalq vakillari transport vositasidan foydalanishda majburiy sug'urta qilish, yo'l-transport hodisasi ro'y berganda tomonlar kelishuviga ko'ra sug'urta to'lovini aybdor tomonning sug'urtalovchisidan olish masalalari tartibga solinayotganligini ma'qulladi.

Shu bilan birga, sug'urta xizmatlari iste'molchilari huquqlari himoyasini kuchaytirish maqsadida sug'urtalovchi tomonidan iste'molchiga taqdim qilinishi shart bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati loyihada aks ettirilishi ijobiy baholandi.

Deputatlar qonun loyihasi bilan kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlashda va sug'urta sohasining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladilar.

Qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilindi.

## Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tizimi takomillashtirilmoqda

Majlisda elektron tijorat sohasini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan muhokama qilindi.

Keyingi yillarda elektron tijorat jadal sur'atlarda rivojlanib, yangi raqamli platformalar va xizmatlar paydo bo'lmoqda. Shu sababli qonunchilikda elektron tijorat subyektlari faoliyatidagi munosabatlarni tartibga solish va sohani rivojlantirishga oid normalarni belgilash zarurati yuzaga kelmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunda elektron tijorat sohasidagi elektron savdo platformasi operatori, buyurtmalar agregatori va raqamli striming xizmati operatorlari faoliyat turlari belgilab qo'yilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi elektron tijorat sohasida faoliyat yuritayotgan elektron tijorat operatorlari faoliyatida aniqlik va shaffoflikni hamda raqobat muhitini ta'minlash, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgani qayd etildi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

## Nahotki?..

# HOKIM NIMADAN DARG'AZAB?

Bugungi internet va ommaviy kommunikatsiyalar rivojlangan bir davrda xalqimizning "El og'ziga elak tutib bo'lmaydi" degan maqoli har qachongidan dolzarb. Chindan ham, har qanday noo'rin aytilgan gap yoki noto'g'ri xatti-harakat darhol ijtimoiy tarmoq orqali keng tarqalyapti.

Bundan, ayniqsa, hokimlar, turli darajadagi rahbarlar ko'proq "aziyat chekmoqda". Shunday bo'lsa-da, kunda-kunora yuz berayotgan "qovun tushirish"larning oxiri ko'rinmayapti. Bir hokim tadbirkorni "ko'mib" yubormoqchi bo'lsa, boshqasi qo'l ostidagilarni bo'ralab so'kayotganini eshitib qolamiz. Yana bir rahbar videoselektorda kotibasi bilan bir stulda o'tirib ishtirok etsa, boshqasi xodimining ayollar bilan ishlay munosabatini ochiq-oydin muhokama qiladi.

Eng qizig'i, bunday holatlarda aybdorga nisbatan chora ko'rish masalasida yondashuvlar g'alati. Agar xatoga yo'l qo'ygan rahbarning darajasi yuqori bo'lsa, jazoni u emas, voqeani internetga tarqatgan odam yoki shunga yo'l qo'ygan xodim oladi. Bunga Andijondagi maktabda ro'y bergan voqea yaqqol misol. Oxir-oqibat, maktabni o'z kuchi bilan ta'mirlashga buyruq bergan rahbarlar chetda qolib, direktor baloqa qoldi. Vaholanki, u o'qituvchilarni o'z tomorqasiga olib borib ishlatgani yo'q edi. Agar hokimlik o'z vaqtida maktab ta'miri uchun tender o'tkazib, quruvchi tashkilot tayinlaganida, direktor bu ishlarni o'qituvchilarga qidirishga majbur bo'lmasdi.

Muhokamaga chiqqan kamchiliklarga munosabatning yana bir g'alati jihat shundaki, endi viloyat hokimlari va respublika darajasidagi rahbarlar yo'l qo'yilgan xatoga e'tibor qaratmasdan, ko'proq u haqda ommaviy axborot vositalarida gapirilganidan darg'azab bo'lishyapti. Ularning nazdida kamchilik bo'lsa bo'laversin, faqat ijtimoiy tarmoqqa yoki gazetaga chiqib ketmasa, asosiysi, bundan yanada yuqoriroq turuvchi rahbarlar xabar topmasa bo'lgani...

Yaqqinda ijtimoiy tarmoqda tarqalgan bir videoda viloyat hokimi qo'l ostidagilarga "ijtimoiy tarmoqlar bilan hamkorlik qilmaganing kelajagi yo'qligini uqtirganiga ko'zimiz tushdi. Aslida, jurnalist yoki blogger tanqidiy material tayyorlayotganda kimdir izza qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi. Maqsad – kamchilikni bartaraf etish. Shunday ekan, ijtimoiy tarmoq faollari bilan hamkorlik qilish emas, kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik kerak. Shunda maqsadga erishiladi.

Jamoliddin TO'XTASHEV  
("Xalq so'zi").

# DAVLAT DASTURI IJROSI YUZASIDAN HUKUMAT HISOBOTI HISOBOTI ESHITILDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va yashil" iqtisodiyot yili da amalga oshirishga oid davlat dasturining 2025-yil birinchi yarim yillikdagi ijrosi to'g'risidagi hisoboti muhokama qilindi.

## Parlament nazorati

Kun tartibidagi masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya vaziri Jamshid Qo'chqorov axborot berdi.

Davlat dasturida belgilangan ustuvor yo'nalishlar va maqsadlar doirasida barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish, suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo'nalishida tizimli ishlar amalga oshirilgan.

Hukumat tomonidan vazirlik va idoralar, mahalliy ijro hokimiyati organlari bilan birgalikda davlat dasturi ijrosini o'z vaqtida va tizimli tashkil etish maqsadida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilgan, bir qator normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarni ishlab chiqilishida parlament bilan samarali hamkorlik o'rnatilgan.

Majlisda ta'kidlanganidek, mamlakatimiz barqaror iqtisodiy o'sish yo'lida aniq natijalarga erishyapti. Xususan, 2025-yilning birinchi yarim yilligida mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi 7,2 foizga oshgan. Uning tarkibida bozor xizmatlari – 8,2, sanoat ishlab chiqarish – 6,6, qurilish ishlari – 10,7 va

qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish 4,0 foizga o'sdi.

Xususan, hisobot davrida jami 21 mlrd. AQSH dollarlik xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 1,3 barobar o'sgan. Qiymati 2,5 mlrd. AQSH dollarlik 30 ta loyihani ishga tushirish orqali 3 mingdan ortiq yangi ish o'rnlari yaratilgan, 66 ta tumanga 50 mln. AQSH dollaridan ko'p sarmoya kiritilgan.

Byudjet daromadlari 144,2 trln. so'mga yetib, 27,8 foizga ko'paygan. Davlat byudjetining xarajatlari hisobot davrida 173,3 trln. so'm bo'lib, 13,1 foizga o'sgan. Shundan ijtimoiy sohalariga yo'naltirilgan mablag' 86,2 trln. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 16,4 foizga ko'p. Aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash uchun 14,7 trln. so'm subsidiyalari ajratilgan.

Davlat dasturining har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish borasida belgilangan ustuvor yo'nalishlari doirasida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lmagan o'lim va chekka hududlarga 60 ta mahallada 142 ta maktabgacha ta'limning muqobil shakli bo'lgan mobil guruhlar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, "yoshlar daftari" orqali yigit-

qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 121,8 mlrd. so'm mablag' ajratilgan. Shundan ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarining ta'limi davom ettirishi uchun 50,3 mlrd. so'm, 3 220 nafar nogironligi bo'lgan va bemor yoshlarning davolanish xarajatlari uchun 4,1 mlrd. so'm mablag' to'langan. 4377 nafar yosh ilm-fan, zamonaviy kasblarga o'qitilgan, 934 nafarining bandligi ta'minlangan. Navqiron avlodning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ishsizlikni kamaytirish maqsadida Yoshlar bandlik dasturlari tasdiqlangan.

Ayollarni qo'llab-quvvatlash va ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo'nalishida 156 290 nafar xotin-qiz tadbirkorlik va kasb-hunariga o'qitilgan, 1 771 nafarining uy-joyini yaxshilash choralari ko'rilgan, 99 nafari uy-joy bilan ta'minlangan. Aholini tibbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 40 yoshdan oshgan 8,2 mln. nafar aholi hamda 3 mln.dan ortiq bolalar ommaviy skrining tekshiruvlaridan o'tkazilgan.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida eng og'ir ahvoldagi 1 024 ta mahalla infratuzilmasini yaxshilash, tuman va shaharlarda drayver loyihalarni amalga oshirish hamda kompleks rivojlantirish xarajatlarga 3,2 trln. so'm mablag' yo'naltirilishi belgilangan.

Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida respublika bo'yicha 55 ta mahallada 142 ta maktabgacha ta'limning muqobil shakli bo'lgan mobil guruhlar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, "yoshlar daftari" orqali yigit-

qilish va qayta tiklash tadbirlari amalga oshirilgan.

Majlisda kun tartibidagi masala yuzasidan Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining munosabatlari eshitildi.

O'zLiDeP fraksiyasi partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, davlat dasturining barqaror o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar alohida e'tibor qaratdi.

Fraksiya a'zolari barcha sohada olib borilayotgan tizimli islohotlarni, xususan, yalpi ichki mahsulot hajmining oshgan, eksport hajmining ilk bor 10,3 mlrd. AQSH dollariga yetgani, yoshlarga qaratilayotgan e'tibor hamda Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish borasidagi sa'y-harakatlarni yuqori baholadi.

"Milliy tiklanish" DP fraksiyasi Hukumatning hisobotini chuqur tahlil etib, bugungi murakkab sharoitda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yalpi ichki mahsulotning o'sishini ta'minlash, sanoat hamda xizmat ko'rsatish ulushining ortib borayotganini e'tirof etdi.

Partiya fraksiyasi o'zining dasturiy vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya, milliy madaniyat, ma'naviy rivojlanish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratdi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimiga qamrovning 77 foizga yetgani, bolalarni maktabga tayyorlov 96 foizni qamrab olganini katta ko'rsatkich, deya baholadi.

Ijobiy ko'rsatkichlarni ta'kidlash bilan birga, bir qator takliflar ilgari surildi. Jumladan, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, maktablarni o'quv adabiyotlari bilan o'z vaqtida ta'minlash,

maktabgacha ta'lim muassasalari uchun milliy tarbiya metodologiyasini ishlab chiqish, "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali xorijiy universitetlarda o'qib kelgan yoshlarni munosib ish bilan ta'minlashni tizimli yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozimligi aytiladi.

"Adolat" SDP fraksiyasi aholining o'rtaacha umr davomiyligini oshirish, kasalliklarni erta aniqlash va oldini olish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarni yuqori baholadi. Xususan, joriy yilning dastlabki 6 oyida 809,4 ming nafar xotin-qiz onkologiya tekshiruvidan o'tkazilib, 397 nafarida (75,6 foiz) kasallik erta bosqichda aniqlanganiga alohida e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, 3 – 18 yoshli 3 mln.dan ortiq bolalar o'rtaacha onkologematologik kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha ommaviy va sele

# XO'JALIK YURITISHNING HALOLLIK MEXANIZMLARI

O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab "bozor mexanizmi", "mexanizm" so'zlari paydo bo'ldi. Ularning mag'zini chaqib, ma'nosini anglab, o'rniga qo'yib ishlatyapmizmi? Quyida shu haqda muxtasar to'xtalamiz.

Avvalo, aytish joiz, "mexanizm" deb (yunoncha mechane – qurol, inshoot) bir yoki bir necha jismlarning harakatini boshqa jismlarning ma'lum harakatiga aylantirib beradigan qurilmaga aytiladi.

## Nuqtai nazar

Mexanizm deganda, eng avvalo, o'rta maktabda o'qitiladigan fizika fanidagi richag, dastak, kengroq mushohada yuritsak – ko'tarma kranlar, murakkab texnik qurilmalar ko'z o'ngimizga keladi. Ular moddiylik shaklida namoyon bo'ladi. Bularning hammasini "texnikaviy mexanizmlar" deb umumlashtirish mumkin. Bunday mexanizmlar jismoniy harakatni, ular vositasida bajariladigan ishlarni anglatadi.

Bozor mexanizmlari deganda, biz iqtisodiy mexanizmlarni tushunamiz. Xo'sh, iqtisodiy mexanizm nima?

"Iqtisodiy mexanizm" tushunchasi takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va uni tartibga solishning shakli va usullari yig'indisini anglatadi. Ular ishlab chiqarish kuchlari va jamiyat ustqurmasi o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi. Iqtisodiy mexanizmlar moddiy holatda namoyon bo'lmaydi, ularni ko'z bilan emas, faqat aql (bilim) bilan ko'rish mumkin. Iqtisodiy mexanizmlar o'zining mazmuni va vazifasiga qarab quyidagicha turkumlanadi:

– ish kuchi va sarmoyani birlashtirish shakllarini belgilovchi; – daromadlarni taqsimlash usullarini belgilovchi;

– tovar ishlab chiqaruvchilarni (tadbirkorlikni) rag'batlantiruvchi.

Shu o'rinda aytish kerakki, ajdodlarimiz o'z davrida mazkur mexanizmlarni huquqiy me'yorlar shaklida puxta ishlab chiqishgan. Bu borada Burhoniddin Marg'inoniyning xizmatlari beqiyos. U o'zining "Hidoya" asarida hozirgi ilm-fanga nisbatan sodda bo'lsa ham, sarmoya (investitsiya)lardan foydalanish tartiblarini belgilab bergan. Sarmoya egasi undan foydalanish uchun tadbirkorni yo'llashi mumkin. Alloma bu asarida sarmoya va mehnatni birlashtirishning turli shakllarini ko'rsatib bergan. Ular – "muzrabat" (sarmoya foydasi va mehnatga sherik bo'lish), "bozori", "qarz", "oriyat" (ssuda), "ijara" deb ataladi.

Muzrabat shunday sheriklik shartnomasidirki, unda bir tomon



sarmoya, ikkinchi tomon mehnat qo'shadi. Tomonlarning har biri foydaning bir qismiga ega bo'lish huquqini qo'lga kiritadi. Muzrabatning asosiy sharti foydaga hissdor bo'lishdir. Bunday shartnoma mo'ljallangan ishni amalga oshirish uchun sarmoyani tadbirkor qo'lida to'plash imkonini beradi. Tadbirkor sarmoyani o'z bilganicha ishlatishi, zarur xomashyo, asbob-uskunalar sotib olishi, sarmoyani aylanma mablag' shaklida ishga solishi yoki kreditga berishi mumkin.

Bu shartnoma tijorat faoliyatining barcha ko'rinishiga tegishli bo'lib, uning muhim jihati – sarmoyani ishlatish imkoniyatlarini cheklamaslik. Savdogarlar odatidagi barcha ishlar bilan shug'ullanishga tadbirkorning haqqi bor. Bunday shartnomaning asosiy sharti – foyda olishni ta'minlashdan iborat. Tadbirkor unga berilgan sarmoya uchun to'la javobgar va foyda olishga mas'ul bo'ladi. Ish bo'yicha xarajatlar foyda hisobidan qoplanadi. Ish yakunida avval mulkdor o'z sarmoyasini oladi, keyin foyda mulkdor va tadbirkor o'rtasida taqsimlanadi.

Bozori – shunday shartnomaki, bunda foydaning hammasi mulk egasiga tegadi, tadbirkor mehnati uchun avvaldan kelishilgan haqqini oladi. Qarz shartnomasida foydaning hammasi tadbirkorga tegishli bo'ladi. Oriyat (ssuda) – hech qanday to'lovsiz buyum (asbob-uskuna) dan foydalanish huquqini berish haqidagi shartnoma. Buyumni bergan shaxs ssuda beruvchi bo'ladi. Buyumni qaytarib berish

muddatini belgilash shart emas. Oriyat shartnomasi buyumni qaytarib berishni talab qilish bilan barham topadi. Ijara shartnomasida esa belgilangan muddat o'tmasdan buyumni qaytarib berishni talab qilish mumkin emas. Ssuda oluvchi oriyaatga olingan buyumni boshqa odamga berish (qarza berish) huquqiga ega emas. Yer imorat qurish yoki ekin ekish uchun ssudaga olinishi mumkin. Yerni ssudaga olish shartnomasida muddat belgilangan bo'lsa, ssuda beruvchi yerni muddatidan avval qaytarib berishni talab qilsa, ssuda oluvchiga yetgan zararni to'lashi

**“Bozorni tartiblashtirishning zamonaviy mexanizmlari ikki guruhga – davlat va nodavlat guruhlarga bo'linadi. Buyruq berish, majburlash, musodara qilish kabi ma'muriy-buyruqbozlik usullari qo'llanilgan rejali xo'jalikdan farqli o'laroq, erkin bozorda davlat faqat iqtisodiy mexanizmlardan foydalanadi.”**

lozim bo'ladi. Ssuda muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, ssuda oluvchiga yetgan zarar to'lanmaydi.

Ekin ekish uchun ssudaga berilgan yer muddati ko'rsatilgan yoki ko'rsatilmaganidan qat'i nazar, hosil yig'ishtirib olinmaguncha qaytarib olinishi mumkin emas. Agar yer bog' qilingan bo'lsa, qaytarib olish mumkin.

Ijara shartnomasi – ma'lum haq evaziga buyumdan foydalanish huquqini sotish. Ijara shartnomasida ijaraga olishdan maqsad aniq ko'rsatilishi shart, aks holda shartnoma qonuniy hisoblanmaydi.

Yuqorida keltirilgan shartnomalarni tadbirkor va sarmoyadorni birlashtirish shakllarini belgilab beruvchi mexanizmlar, deyish mumkin. Bunday shartnomalar aniq ifodalansin, tomonlar bir-birini aldamasligi shart, aks holda shartnoma buziladi, o'rtada nizo kelib chiqadi.

Shu o'rinda "Dehqon va ayiq" ertagini misol qilib keltirish mumkin.

Dehqon va ayiq teng sherik bo'lib ekin ekishibdi. Birinchi yil dehqon ayiqqa ekinning ildizini berishni va'da qilib, g'alla ekibdi. Ikkinchi yil u ayiqqa ekinning bargini berish va'dasi bilan sholg'om ekibdi. Ikki yil mehnat qilib hech qanday foyda ko'rmagan ayiq dehqonga dushman bo'lib qolibdi. Hosilni taqsimlashning bunday mavhum shartnomasi ayiqni aldash uchun ishlatilgan iqtisodiy mexanizm vazifasini bajargan. Afsuski, shunga o'xshash aldanchiliklar faqat ertaklarda emas, hayotda ham uchray turadi.

Sobiq ittifoq davrida Rossiya O'zbekistonga 1 kg. bug'doyni 16 tiyindan sotib, 1 kg. paxtani 55 tiyindan sotib olgan. Vaholanki, paxta yetishtirish uchun bug'doyni nisbatan 20-marta ko'p mehnat sarflanadi. Shunga ko'ra paxtaning narxi bug'doyni nisbatan 20-marta yuqori – 3 so'm 20 tiyin bo'lishi yoki bug'doyni narxi 2,75 tiyin bo'lishi lozim edi.

Daromadlarni taqsimlash usullarini belgilovchi mexanizmlarga ushr va zakot ham kiradi. Ushr hosilning o'ndan bir qismini jamoa ehtiyojlarini qondirish uchun ixtiyoriy ravishda topshirishni taqozo etadi. Demak, ushr – olingan daromadni shaxs va jamiyat o'rtasida taqsimlash tartibini belgilovchi mexanizm vazifasini bajaradi.

Zakot ham xuddi shunday iqtisodiy masalani hal qilishga qaratilgan mexanizmdir. Unga ko'ra, o'zi va oilasi ehtiyojidan ortiqcha, daromad keltiruvchi boylarning qirgandan bir qismi muhojirlarga ixtiyoriy ravishda beriladi. Demak,

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida mamlakatimizni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish maqsadlari va vazifalari, bozor islohotlarini takomillashtirish yo'nalishlari belgilab berilgan. Bunda iqtisodiyotni rivojlantirishda nodavlat mexanizmlariga ustuvorlik berilib, davlat mexanizmlarining o'rni yildan-yilga qisqarib boradi. Natijada O'zbekiston iqtisodiyoti tartibga solinadigan bozor mexanizmlariga o'tkazilib, Jahon savdo tashkiloti talablariga moslashadi.

**Nuriddin YO'LDOSHEV,**  
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti  
professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

Reklama

## Investor va qurilish tashkilotlari rahbarlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi PQ-4343-sonli qaroriga muvofiq, shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarining zamonaviy talab darajasida hamda arzon uy-joylar qurish va berish hisobidan ularni rag'batlantirish hamda ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-118-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-oktyabrdagi 865-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mehrjon ko'chasi, 35-uy manzilida joylashgan qurilish umumiy maydoni 1500 m2 (0.15 ga) bo'lgan bo'sh yer maydonida Toshkent shahar ichki ishlar organlari xodimlari uchun ko'p qavatli turarjoy binolarini tayyor holda topshirish shartlari bilan davlat-xususiy sherikligi asosida qurilish bo'yicha investorlar va qurilish tashkilotlari mutasaddilari hamkorlikka taklif etiladi. Tanlovda qatnashish istagida bo'lgan tashkilotlar vakillaridan quyidagilar talab qilinadi:

1. Investor yoki qurilish tashkilotining nizomi va guvohnomasi;
2. Tashkiliy tuzilishi bo'yicha ma'lumot;
3. Oxirgi uch yillik (2022, 2023 va 2024-yillar) moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot (oxirgi uch yillik "F-1" va "F-2" hisobotlari, pudrat shartnomalari, obyektini foydalanishga topshirish bo'yicha nusxalari ilova qilinishi shart);
4. Xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan investor yoki qurilish tashkilotining qarzdorlik mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma;
5. Soliq inspeksiyasi tomonidan investor yoki qurilish tashkilotining qarzdorligi mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma hamda ishchi xodimlari to'g'risida ma'lumot (soliq

hisobotida ko'rsatilgan ishchilar soni "milliy mehnat uz" bazasiga to'g'ri kelishini isbotlovchi hujjatlarini ilova qilishi shart);

6. Investor yoki qurilish tashkilotining moddiy-texnika bazasi hamda qurilish texnikasi va kichik qurilish mexanizmlari to'g'risida ma'lumot (texnik pasportlarning nusxalari bo'lishi shart);
7. Qurilish rejalashtirilgan hududga loyiha taklifi (bosh reja, fasad, qavatlar rejayi, "3D" ko'rinishda);
8. Qurilish ishlarini olib borish, uning muddatlari va qurilish shartlari ko'rsatilgan tarmoq rejayi (tasdiqlangan ko'rinishda);
9. Qurilish rejalashtirilayotgan ko'p qavatli turarjoy binolaridagi xonadonlarning eng kamida 50 foizini ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilari uchun

imtiyozli arzonlashtirilgan narxlarda sotish bo'yicha hisoboti (tijorat taklifi);

10. Loyihalananayotgan ko'p qavatli turarjoy binosi joylashgan hududda qo'shimcha ravishda alohida transformator, avtomobillar turarjoyi, chiqindi tashlash joyi hamda bolalar maydonchasi bo'lishi shart;
11. Taklif uchun loyihalananayotgan ko'p qavatli turarjoy binosining qavatlari yer maydoni joylashgan tuman bosh arxitektori bilan mashlahatlashgan holda kelishilishi lozim;
12. Mazkur shartlar bo'yicha hamkorlik qilish istagidagi investor yoki qurilish tashkilotlari 2025-yilning 12-sentyabr kuniga qadar tanlov yuzasidan qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi manzilga murojaat qilishlari mumkin:

**Toshkent shahri, Mirobod tumani, Sodiq Azimov ko'chasi, 87-uy, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi. Telefon: 71-206-44-08.**

**Qurilish rejalashtirilayotgan obyekt manzili:**

**Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mehrjon ko'chasi, 35-uy manzilida joylashgan qurilish umumiy maydoni 1500 m2 (0.15 ga) bo'lgan bo'sh yer maydoni.**

## Xalq so'zi Narodnoe slovo

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi

## Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 642, 13 107 nusxada bosildi. Hajmi – 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mulligga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohimani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir F. Bozorov.  
Musahhib S. Islomov.

**"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:**  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.15 Topshirildi — 23.35 **1 2 3 4 5 6**

## ZAMIN SAXOVATI

### Anjirzorda ajib namoyish

Samarqand shahridagi Bog'ibaland turizm mahallasida o'tkazilgan "Anjir sayli" da vitamin va mineralarga boy bo'lgan anjir yetishtirish, uni qayta ishlash hamda agroturizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ilg'or agrotexnologik tajribalar namoyish qilinib, dehqon va fermer xo'jaliklari vakillari uchun seminarlar tashkil etildi.

– "Anjir sayli" ushbu mevani yetishtirishni ommalashtirish, yo'qolub ketayotgan noyob turdagi anjir ko'chatlarini ko'paytirishda muhim ahamiyat kasb etadi, – deydi Samarqand viloyati hokimining o'rinbosari Rustam Qobilov. – Bog'bonlarimiz tomonidan yangicha, "In-vitro" usulida parvarishlangan 6 oylik ko'chatlar bepul tarqatildi. Yana bir ahamiyatli jihati, tadbirning bugungi kunda turizm maskaniga aylangan Bog'ibalanddagi anjirzorda o'tkazilganidir. Unda turli mamlakatlardan kelgan sayyohlar ham ishtirok etdi.

Ko'rgazma, anjirand tayyorlangan sharbat, murabbo hamda turli milliy va Yevropa taomlari barchaga manzur bo'ldi. Madaniy dasturlar, folklor jamoalarining chiqishlari ishtirokchilarga bayramona kayfiyat bag'ishladi.

**Abdulaziz YO'LDOSHEV**  
("Xalq so'zi").

### Xandon pista – foydali ne'mat

Uchqo'rg'on tumanida qishloq xo'jaligiga innovatsion texnologiyalar jadal kirib boryapti. Keyingi paytlarda mahalliy bog'bonlar o'z tomorqalarida dasturxon ko'rki bo'lgan qulupnay, g'olubika singari taniqli mevalardan tashqari, xandon pista yetishtirishni ham yo'lga qo'yishdi.



Bu ishga qaytgan mahallasi istiqomat qilayotgan Tojiddin Jalilov birinchilardan bo'lib kirishgan edi. O'tgan yili u parvarishlayotgan 32 tup pista ko'chati dastlabki hosil nishonasini ko'rsatdi.

– Qimmatbaho mevaning Erondan keltirilgan "Akbariy Ahmadiy" navini mahalliyashtirganmiz, – deydi 68 yoshli usta bog'bon. – Odatda, bu o'simlik 7-8 yil atrofida meva bera boshlaydi. To'g'ri, pistolimiz daromad keltirishi uchun vaqt kerak, lekin to'la hosilga kirishi bilan chinakam xazinaga aylanaadi. Kelgusi oydan bu yilgi hosilni bozorga chiqaramiz. Demak, ro'zg'orimizga yaxshigina baraka kiradi.

Qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lar T. Jalilovdan o'mnak olib, o'z hovlilariga noyob meva ko'chatlarini o'tqazishga kirishgan. Qayqi hademay pista yetishtiruvchilar mahallasi nomini olsa ajab emas.

**Qudratilla NAJMIDDINOV**  
("Xalq so'zi").

### Fermer xorijga na'matak eksport qilmoqda

Buxoro tumanining "Shuhrat" fermer xo'jaligidagi na'matakzorda yetishtirilgan hosilning bir qismi eksport qilinmoqda. O'tgan yilda xo'jalik 100 ming AQSH dollari miqdorida dorivor o'simlik mevasini chet ellik buyurtmachilarga yetkazdi.

– Buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino yozib qoldirganidek, na'matak inson salomatligi uchun juda foydali, – deydi fermer G'olib Rahmatov. – Uning tarkibi vitamini, darmondorilarga boy. Immunitetni mustahkamlaydi, qon bosimini me'yorga keltiradi. Shamollash yo'lga g'ov bo'ladi. Bu o'simlik azal-azaldan xalq tabobatida qo'llanib kelingan. Zamonaviy tibbiyotda ham kasalliklarni davolashda na'matakdan keng foydalaniladi.

Fermerning o'z tajribasidan kelib chiqib aytishicha, bir gektar maydondagi na'matakdan o'rtaacha 8-9 tonna hosil olish mumkin. Tabiiyki, ko'p narsa o'simlikni risoladagidek parvarish qilishga bog'liq. Ishga oqilona yondashuv ortidan bu yerda hosildorlik yil sayin oshib boryapti. Fermer xo'jaligi joriy yilda xorijga 200 ming AQSH dollari miqdorida na'matak mevasi sotish niyatida.

**Istam IBROHIMOV**  
("Xalq so'zi").

## O'zbekistonlik 85 nafar fransuz tili fani o'qituvchisi Fransiyada malaka oshirmoqda.

|  |   |  |  |
|--|---|--|--|
| <p><b>Xalq so'zi</b><br/><b>Narodnoe slovo</b></p> <p><b>MUASSISLAR:</b><br/>O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi<br/>Qonunchilik palatasi Kengashi<br/>O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi<br/>Senati Kengashi</p> | <p><b>Bosh muharrir O'tkir RAHMAT</b></p> <p>2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 642, 13 107 nusxada bosildi. Hajmi – 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.</p> <p><b>TELEFONLAR:</b><br/>Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;<br/>e'lonlar 71-259-74-55.</p> | <p>Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mulligga qaytarilmaydi.<br/>Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohimani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.<br/>Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.<br/>Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.<br/>Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.</p> | <p><b>MANZILIMIZ:</b><br/>100066,<br/>Toshkent shahri,<br/>Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.<br/>Navbatchi muharrir F. Bozorov.<br/>Musahhib S. Islomov.</p> <p><b>"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:</b><br/>Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.15 Topshirildi — 23.35 <b>1 2 3 4 5 6</b></p> |
|--|---|--|--|